

TTPU TALABALARI DAVLAT GRANTLARI ORQALI XORIJDA BILIM OLMOQDALAR.


TTPU talabalari Universitetimizning almashuv dasturlari bilan bir qatorda, davlat grantlari orqali ham xorijda o'qish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Gayratov Jasur ana shunday imkoniyatni qo'lga kiritgan talabalarimizdan biri hisoblanadi.

Jasur, Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universitetining bakalavr bosqichini "Mashinasozlik texnologiyasi" yo'nalishida 2015-2019-yillarda tahsil olgan. Talabalik vaqtida universitet "Talabalar uyushmasi" faoli bo'lgan. 2019-2021- yillarda universitetda o'z mehnat faoliyatini davom ettirib, Xodimlar bo'limi mutaxassisi hamda, "Juventus" futbol akademiyasi menejeri lavozimlarida ishlagan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi "El-yurt umidi" fondining 2021-2022-o'quv yili uchun mo'ljallangan xorijda ta'lim olish uchun grant go'libi bo'lib, hozirda Italiyaning Turin Politehnika Universitetida "Muhandislik va boshqaruv" yo'nalishi bo'yicha Magistratura bosqichida tahsil olmoqda.

"Xorijiy davlatlarda tahsil olish – bu xorijiy bilimlarni olish bilan birga, boshqa dunyoqarashga ega insonlar bilan bir muhitda yashash va o'zingiz uchun yangiliklarni ochish demakdir. Magistratura bosqichini xorijda davom ettirishga yaratilgan imkoniyatlar uchun davlatimiz va universitet ma'muriyatiga alohida minnatdorchiligimni bildiraman. "El-yurt umidi" jamg'armasining keyingi tanlovlarida ishtirok etish niyatida bo'lgan barcha Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universiteti talabalariga tanlovda ishtirok etish jarayonida qo'ldan kelgancha maslahat va yordam berishga tayyorman" – deydi Jasur. Italiyada hayot, ta'lim va turli xil grantlar haqidagi ma'lumotlarni talabamizning shaxsiy kanalida kuzatib borishingiz mumkin (https://t.me/jasur_gayratov)

Universitetimiz iqtidorli talabasini erishgan yutuqlari bilan tabriklaymiz va keying ishlarida omad tilab qolamiz!





WWW.POLITO.UZ



WWW.POLITO.UZ



WWW.POLITO.UZ



WWW.POLITO.UZ